Tijorat banklarida operatsion risklarini baholash va boshqarish tizimini tashkil qilish	850
Jaxongir Rabbimov	
Tomorqa xo'jaliklari faoliyatini tahlil qilishda statistik modellar va metodlardan foydalanish yo'nalishlari.....	855
Turobov Sherzod Alisherovich	
Совершенствование порядка расчёта и взимания НДС в узбекистане: аналитический подход.....	860
Бисенбаев Шарьяр Куанишбай ули	
Mintaqaviy iqtisodiyotda inson kapitalini raqamli transformatsiyalash masalalari.....	864
Yusubboeva Dinora Quadrat qizi	
Sirdaryo viloyatining turizm imkoniyatlari va o'ziga xos turizm resurslari.....	875
Tursunova Gulmira Rabbonovna	
Samarqand viloyatida investitsion-innovatsion faollikni oshirish holati va investitsiyalarning tarkibiy xususiyatlari.....	883
Bektemirov Abdumalik Bektemirovich, Axrorov Abbas Aslamjon o'g'li	
Global innovatsion indekslar va o'zbekiston: rivojlanish yo'nalishlari va bosqichlari	889
Bekmurodova Gavhar Adham qizi	
Aksiyadorlik jamiyatlarida korporativ boshqaruvga raqamli texnologiyalarni joriy qilishning ilmiy-nazariy asoslariga qarashlar	895
Suyunov Dilmurod Xolmuradovich, Xabibullayeva Shirinxon Toxir qizi	
Xalqaro standartlar asosida moliyaviy instrumentlar hisobini va auditini takomillashtirish.....	902
Nuraliyev Behzod Baxtiyor o'g'li	
Внедрение и адаптация исламского банкинга в экономике узбекистана	906
Б.Б.Ахмаджанов, М. С.Шукруллаева, Д.Р.Сафаева	
Kichik biznesning iqtisodiy o'sishni ta'minlashdagi ahamiyatini baholash uslubiyoti.....	911
Ermatov Akmaljon Adxamovich	
"Neyromarketing" asosida o'zbekiston turizm brendi tahlili	916
Narziqulov Elbek Farxod o'g'li	
Xalqaro bozorlarda zamonaviy marketing vositalaridan foydalanish	922
Meliqulov Abdulhalil Norinovich	
Tijorat banklarida muammoli kreditlar va ularning bank aktivlariga ta'siri.....	929
Saidov Bobir Jiyanboy o'g'li, Xolmuradov Musurmon Avlaqulovich	
Сущность и причины международных денежных переводов	936
Гимранова О. Б.	
Xo'jalik yurituvchi subyektlarda uzoq muddatli aktivlarning hisobi va auditini raqamli tvn texnologiyasi asosida takomillashtirish imkoniyatlari.....	941
Rizakulov Abdurauf Abdimutalibovich	
Biologik aktivlarning tushunchasi: iqtisodiy mazmuni va mohiyati.....	948
Ziyayev Dilshodjon Salimjonovich	
Xorijiy investitsiyalarni jalb qilishda iqtisodiy siyosatning roli: zamonaviy yondashuvlar.....	953
Xodjayev Jamshid Abduxakimovich	



Аналитический обзор: Развитие корпоративного управления в государственных корпорациях Узбекистана (2015–2025).....	958
Мамараджабов Фарход Бахтиярович	
O'zbekistonda transport infratuzilmasini rivojlantirish karidorlari	968
Nazriyev Umidjon Baxrillayevich	
Aylanma kapital bilan ishlashda samaradorlikni oshirish: korxona moliya siyosatini takomillashtirish yo'nalishlarida data science yondashuvlari	975
Khoshimov Doniyor, Kungratov Ilmurod Kuzibay o'g'li	
Davlat ulushi mavjud bo'lgan korxonalarda moliyaviy barqarorlikni ta'minlashda raqamli transformatsiyaning roli	982
Musurmonov Mehroj Murtaza o'g'li	
Iqtisodiyotni raqamlashtirishda tijorat banklariga moliyaviy resurslarni jalb qilish metodologiyasini takomillashtirish	988
Hamrayev Obid Akhatovich	
Tibbiy xizmatlarda raqamli texnologiyalarni joriy etish va uning samaradorlikka ta'siri (xorijiy tajriba).....	993
Usmonova Vasila Botirovna	
Tijorat banklarida muammoli kreditlarni boshqarish amaliyoti tahlili.....	997
Akramova Nargiza Nutfillayevna	
Using integrated marketing communications (IMC) in business management	1002
Ziyayeva M.M.	
Xorijiy mamlakatlarda tibbiyot muassasalarini moliyalashtirish masalalari va ulardan o'zbekistonda foydalanish istiqbollari.....	1006
Jaxongirov Ilindorjon Jahongirjon o'g'li	
Davlat budjetining ijtimoiy sohani rivojlantirishdagi xarajatlarini samarali boshqarish yo'llari.....	1011
Qo'ziyev Shodiyor Qilichboy o'g'li	
Mintaqada xalq hunarmandchiligida klasterlash va ekologik logistika modeli asosida savdo tizimini shakllantirish.....	1015
Norqobilova Feruza Abduhomidovna	
To'g'ri xarajatlar usuli va to'liq yutuvchi xarajatlar usuli tizimlarining afzalliklari va farqli jihatlari amaliy misolda.....	1019
Kholisa Kamoliddinovna Kuldosheva	
Investitsiyalarni innovatsiyalarga yo'naltirish bo'yicha xorij tajribasi	1024
Ayubov Ilyos Ilxomovich	
Важность разработки стратегических программ развития страны.....	1028
Каримова Нуржахон Олим кизи	
Sanoat korxonasining raqamli transformatsiyasini baholash omillari va ko'rsatkichlari.....	1032
Kudaybergenov Azamat Shamuratovich	



UDK 338.4

SANOAT KORXONASINING RAQAMLI TRANSFORMATSIYASINI BAHOLASH OMILLARI VA KO'RSATKICHLARI

Kudaybergenov Azamat Shamuratovich

Iqtisodiyot fanlari nomzodi, professor v.b.

Berdaq nomidagi Qoraqalpoq davlat universiteti

Annotatsiya: Raqamli sanoat platformalari kompaniya samaradorligini oshirish uchun jiddiy vosita bo'lishi mumkin. Shunga qaramay, sanoat korxonasini raqamli o'zgartirish jarayonini tezlashtiradigan va unga jiddiy to'sqinlik qiladigan juda ko'p ichki va tashqi omillar mavjud. Ushbu maqolada sanoat korxonasining raqamli transformatsiyasi omillari, shuningdek ularni baholashga imkon beradigan ko'rsatkichlar ko'rib chiqilib, ichki va tashqi omillar tasniflangan.

Kalit so'zlar: raqamli texnologiyalar, raqamli platformalar, raqamli transformatsiya, ilg'or texnologiyalar, raqamli iqtisodiyot, sanoat inqilobi.

Abstract: Digital industrial platforms can be a significant tool for improving company efficiency. However, there are many internal and external factors that accelerate and seriously hinder the digital transformation of an industrial enterprise. In this article, the factors of digital transformation of an industrial enterprise, as well as the indicators that allow to evaluate them, are considered and internal and external factors are classified.

Key words: digital technologies, digital platforms, digital transformation, advanced technologies, digital economy, industrial revolution.

Аннотация: Цифровые промышленные платформы могут стать существенным инструментом повышения эффективности компании. Однако существует множество внутренних и внешних факторов, которые ускоряют и серьезно тормозят цифровую трансформацию промышленного предприятия. В данной статье рассмотрены факторы цифровой трансформации промышленного предприятия, а также показатели, позволяющие их оценить, а также классифицированы внутренние и внешние факторы.

Ключевые слова: цифровые технологии, цифровые платформы, цифровая трансформация, передовые технологии, цифровая экономика, промышленная революция.

KIRISH

Bugungi kunda iqtisodiy rivojlanish avvalgi bosqichlardan, birinchi navbatda, sur'at jihatidan, shuningdek globalashuv jarayonlari, raqamli texnologiyalarni keng joriy etish va boshqa omillar bilan bevosita bog'liq bo'lgan aholining ijtimoiy holatiga ta'sirining sifati jihatidan sezilarli darajada farq qilmoqda.

Iqtisodiy tizimlar rivojlanishining dastlabki bosqichlari, birinchi navbatda, to'g'ridan-to'g'ri ishlab chiqarish va ishlab chiqarish munosabatlaridagi o'zgarishlar bilan tavsiflangan bo'lsa, hozirgi raqamlashtirish jarayonlari jamiyat va davlatning iqtisodiy bo'lmagan hamda iqtisodiy jihatlarini tobora yaqinlashtirmoqda.

Bunday jarayonlar bizning ko'z o'ngimizda sodir bo'lmoqda va ular ijobiy hamda salbiy oqibatlarga ega bo'lishi mumkin. Bu esa yana bir bor ko'rib chiqilayotgan mavzuning dolzarbligini tasdiqlaydi.

Yuqoridagilarga muvofiq, tadqiqotning maqsadi — sanoat korxonasining raqamli transformatsiyasi jarayoniga ta'sir qiluvchi omillarni, shuningdek, ularni baholashda foydalanilishi mumkin bo'lgan ko'rsatkichlarni tahlil qilishdan iborat.

MAVZUGA OID ADABIYOTLARNING SHARHI

Mavzuga oid adabiyotlarning tahlili shuni ko'rsatadiki, sanoat korxonalarini transformatsiyalash jarayonining uslubiy asoslarini o'rganish korxonani transformatsiyalashning mavjud turlarini aniqlash hamda ushbu jarayon qanday bosqichlar asosida amalga oshirilishini tushunishga yordam beradi. Turli xorijiy va mahalliy olimlar transformatsiya jarayonlarini uslubiy jihatdan tahlil qilgan. Jumladan, G'. Ibragimov oziq-ovqat sanoati korxonalarida qo'llaniladigan transformatsiya jarayonlarini texnologik transformatsiya, xo'jalik munosabatlari



tizimi transformatsiyasi, mulkiy munosabatlar tizimi transformatsiyasi, raqamli transformatsiya, ilm-fan va ishlab chiqarish o'rtasidagi munosabatlar transformatsiyasi hamda kadrlar tayyorlash tizimining transformatsiyasi kabi yo'nalishlarga ajratgan bo'lib, ushbu turlarni bosqichma-bosqich amalga oshirish transformatsiya jarayonlarining samaradorligini oshirishda muhim ahamiyatga ega ekanligini ta'kidlagan. Rossiyalik olim L. Steblyakova o'z tadqiqotida transformatsiya jarayonlarini evolyutsion (tinch yo'l bilan), reformatsion (modernizatsiya asosida) va revolyutsion (inqilobiy) shakllarga ajratgan. Uning fikricha, evolyutsion transformatsiya — bu tizimning ichki manbalariga asoslangan, bosqichma-bosqich amalga oshadigan va o'z-o'zini rivojlantirishga yo'naltirilgan uzluksiz jarayondir. Bunday o'zgarishlar tizim ichidagi iqtisodiy kuchlar harakati orqali qarama-qarshiliklarni yumshatib, tizim yaxlitligini saqlashga xizmat qiladi; jarayon silliq, keskin sakrashlarsiz amalga oshadi. Reformatsion transformatsiya esa hukumat tashabbusi bilan amalga oshiriladigan modernizatsiyadir. Bu jarayonda tizimning asosiy elementlari saqlanib qolgan holda, samaradorlikni oshirish maqsadida alohida parametrlar isloh qilinadi. Shu bois, reformatsion transformatsiyani evolyutsion jarayonning tarkibiy bosqichi sifatida ham qarash mumkin. Bunday transformatsiya tizimni yangi sifat bosqichiga olib chiqish uchun poydevor yaratadi. Revolyutsion transformatsiya esa mavjud tizimni butunlay yo'q qilish va uning o'rniga yangi tizimni tezkor shakllantirishni nazarda tutadi. Bu jarayon siyosiy va hukumat kuchlari ishtirokida, mavjud iqtisodiy va ijtimoiy tuzilmalarni to'liq isloh qilish asosida amalga oshadi. Shuningdek, rossiyalik olim N. Bagretsovning fikricha, transformatsiya bu — tizimning asosiy tarkibiy qismlariga, ya'ni tuzilma, tashkiliy shakl, xarajatlar, xodimlar soni va sifati, aktivlarning texnik darajasi kabi omillarga ta'sir ko'rsatuvchi yangi jarayonlar, aktivlar va funksiyalarni joriy etish yoki eskilarini almashtirishni o'z ichiga oladi. Ijtimoiy-texnik tizimlarning transformatsiya jarayonida esa ikki yo'nalish — firma ichidagi konsolidatsiya va firmalararo integratsiya ajratib ko'rsatiladi. Umuman olganda, xo'jalik yurituvchi subyektlarning moliyaviy-xo'jalik faoliyati tashqi va ichki muhit omillari ta'siri ostida shakllanadi hamda bu holat korxona tizimini chuqur innovatsion yo'nalishda transformatsiya qilinishiga olib keladi.

TADQIQOT METODOLOGIYASI

Tadqiqotda tahlil, umumlashtirish, sintez va induksiya usullaridan foydalanildi. Tadqiqotning nazariy va uslubiy asoslarini korxonalarning raqamli platformalari, ularning raqamli transformatsiyasi, shuningdek, Sanoat 4.0 masalalarini yorituvchi mahalliy va xorijiy tadqiqotchilarning ilmiy nashrlari tashkil etadi [6, 7, 8]. Tadqiqotning dastlabki bosqichida global miqyosdagi raqamli transformatsiya hodisasi o'rganildi hamda uning asosiy omillari aniqlab chiqildi. Keyingi bosqichlarda esa sanoat korxonasi uchun raqamli transformatsiya jarayoni tahlil qilindi va ushbu jarayonga ta'sir etuvchi omillar tasniflandi. Yakuniy bosqichda, tadqiqot davomida aniqlangan omillarni baholashga xizmat qiluvchi ko'rsatkichlar ishlab chiqildi.

TAHLIL VA NATIJALAR

Global ma'noda raqamli transformatsiya jarayoni quyidagicha talqin qilinadi. Birinchidan, an'anaviy iqtisodiy omillarga — mehnat, kapital va yerga qo'shimcha ravishda, bilim omili tobora muhim ahamiyat kasb etmoqda. Bugungi kunda bilim kompaniyaning raqobatdosh ustunliklarining asosiy manbai hisoblanib, mahsulot yoki xizmat qiymatini shakllantirishda katta rol o'ynamoqda.

Ikkinchidan, bilim o'zining o'ziga xosligini nisbatan tez yo'qotmoqda, bu esa keng ko'lamli raqamlashtirish tufayli yuzaga kelmoqda. Natijada, bilim raqobatbardosh ustunlikni yaratadi. Shu bilan birga, bilim yuqori darajada tarqalish tezligiga ega bo'lib, u alohida kompaniyaga tegishli ustunlikdan jamoat mulkiga — jamoat foydasiga aylanadi. Bozorda yetakchi o'rinni saqlab qolish uchun esa kompaniyalar nafaqat mavjud bilimlarni egallab olishlari, balki zarurat tug'ilganda yangi va noyob bilimlarni yaratish qobiliyatiga ega bo'lishlari zarur [2].

Uchinchidan, bugungi raqamli jamiyatda bilim faqat ko'pligi bilan emas, undan foydalanish va uni yaratish imkoniyatlari bilan ham ahamiyatli hisoblanadi. Hatto uzoq vaqtdan beri mavjud bo'lgan texnologiyalar ham mutlaqo yangi yo'nalishlarda samarali qo'llanilishi mumkin. Turli sanoat va texnologiyalar chorrahasida tobora ko'proq innovatsiyalar yuzaga kelmoqda. Ijtimoiy tarmoqlardan keng foydalanish, internet tarmog'ining jadal rivojlanishi va boshqa omillar innovatsiyalarni yaratish va tarqatish tezligini oshirib, ularning yangi qo'llanilish sohaslarini aniqlashni soddalashtirmoqda.

Bunday jarayonlar, boshqa omillar qatori, kompaniyalar o'rtasidagi raqobat xususiyatiga bevosita ta'sir ko'rsatmoqda. Tarmoq munosabatlarini shakllantirayotgan kompaniyalar iste'molchilar uchun tobora jozibador bo'lib bormoqda, chunki bu barcha ishtirokchilar uchun qo'shimcha qiymat yaratadi.

O'zbekiston Respublikasida raqamli iqtisodiyotga o'tishni tashkil etishning asosiy shartlari quyidagilardan iborat:

- internetga kirish uchun jismoniy infratuzilmani rivojlantirish;
- internet foydalanuvchilari sonining ortishi;



elektron tijoratni rivojlantirish;
mamlakat AT-sanoatini rivojlantirish;
milliy elektron hukumat tizimini shakllantirish va boshqa omillar [3].

Raqamli transformatsiya jarayonining asosiy omillari turli shakllardagi innovatsiyalar — texnologiyalar, mahsulotlar, biznes-modellar va boshqa elementlardan iborat bo'lib, global miqyosda raqamli o'zgarishlar jadalligiga sezilarli darajada ta'sir ko'rsatadi. Umuman olganda, mazkur omillarni quyidagi guruhlariga ajratish mumkin:

Texnologik omillar — davlat tomonidan, birinchi navbatda, raqamli texnologiyalar sohasida innovatsiyalarni yaratish va targ'ib qilish salohiyati;

Ijtimoiy omillar — aholining raqamlashtirish jarayonida ishtirok etishga tayyorligi hamda texnik savodxonlik darajasi;

Iqtisodiy omillar — aholining raqamli texnologiyalardan foydalanish imkoniyati, shuningdek, kompaniyalarning innovatsion yechimlarni ishlab chiqish va ularni joriy etish qobiliyati;

Resurslar — iqtisodiyotning raqamli o'zgarishini ta'minlash uchun zarur bo'lgan moddiy-texnik resurslarning mavjudligi yoki mavjud emasligi;

Davlat va jamiyat siyosati — raqamli texnologiyalarni rivojlantirishni rag'batlantirishga qaratilgan davlat siyosati, qonunchilik, ma'muriy va boshqa institutsional to'siqlar mavjudligi yoki yo'qligi.

Albatta, bu omillar ushbu jarayonga ta'sir ko'rsatadigan yagona omillar emas, biroq ularni eng muhimlari sifatida ko'rsatish mumkin. Bundan tashqari, bu omillar har doim ham ijobiy bo'lmisligi mumkin. Ular, masalan, raqamli texnologiyalarni rivojlantirishga qaratilgan maxsus dasturlar, subsidiya va soliq imtiyozlari orqali ijobiy hissa qo'shadi. Shu bilan birga, ayrim omillar salbiy yo'nalishda ham ta'sir ko'rsatishi mumkin.

Yuqorida sanab o'tilgan omillar, ko'proq global darajada tahlil qilinadi. Biroq, mazkur tadqiqot doirasida raqamli transformatsiya jarayoniga ta'sir etuvchi omillarni korxona yoki kompaniya darajasida o'rganish yanada dolzarb hisoblanadi.

Shuni alohida ta'kidlash lozimki, raqamli transformatsiya — bu raqamli inqilobning noyob vositasi bo'lib, undan o'z vaqtida va to'g'ri foydalanish kompaniyalarga yangi raqamli iqtisodiyotda yo'qolgan yetakchilik pozitsiyalarini tiklash yoki mavjud ustunlikni saqlab qolish imkonini beradi.

Kompaniyaning raqamli transformatsiya jarayonining muvaffaqiyatli bo'lishi, avvalo, ushbu jarayon bosqichlari, mavjud resurslar, ular bilan bog'liq imkoniyat va xatarlar, shuningdek, korxonaning yakuniy maqsadlari haqida aniq tasavvurga ega bo'lishiga bog'liq.

Shuningdek, masofaviy texnologiyalardan foydalanish imkonini yaratish bilan shug'ullanuvchi axborot texnologiyalari xodimining faoliyati ham ichki omillar bilan bevosita bog'liq hisoblanadi.

Ushbu bo'linma biroz shartli ravishda ajratilgan bo'lishi mumkin, chunki AT xodimi, masalan, masofaviy konferensiya dasturlarini sotib olayotganda tashqi muhit bilan ham bevosita aloqada bo'ladi [4].

Keling, raqamli transformatsiyaga ta'sir qiluvchi omillarni ajratib ko'rsatamiz va ularni baholash uchun ishlatilishi mumkin bo'lgan ko'rsatkichlarni ko'rib chiqamiz:

Ichki omillar: moliya, xodimlar, biznes jarayonlar, texnologiyalar va axborot texnologiyalari (AT). Tashqi omillar: mijozlar, raqobatchilar, hukumat siyosati, tashqi hodisalar.

Moliya

Raqamli transformatsiya uzoq muddatli sarmoya bo'lib, bu yo'nalishga investitsiya kiritish to'g'risida qaror qabul qilishni hamda ushbu bosqichning iqtisodiy samaradorligini baholashni talab qiladi. Bunga quyidagi omillar va ularni o'lchash ko'rsatkichlari kiradi:

Raqamli transformatsiyani amalga oshirish va saqlash xarajatlari (uskunalar, dasturiy ta'minotni sotib olish, yetkazib berish va o'rnatish xarajatlari, xodimlarni qayta tayyorlash, menejerlarni o'qitish xarajatlari);

Tashqi moliyalashtirish manbalariga kirish (moliyaviy barqarorlik ko'rsatkichlari: aktivlarni qoplash koeffitsiyenti, investitsiya koeffitsiyenti, avtonomiya koeffitsiyenti va boshqalar, shuningdek, likvidlik ko'rsatkichlari);

Kompaniyaning moliyaviy holati (faoliyat ko'rsatkichlari: aktivlar aylanmasi, rentabellik, kreditorlik va debitorlik qarzlari, muddati o'tgan majburiyatlar);

Kompaniyaning o'z pul resurslari va manbalarining mavjudligi (taqsimlanmagan foyda, zaxiralar va maqsadli fondlar).

Xodimlar

Xodimlar mahsulot yoki xizmat qiymatini yaratishda muhim resurs bo'lib, ayniqsa transformatsiyaning dastlabki bosqichlarida ularning malakasi va madaniy tayyorgarligi katta ahamiyatga ega:

Xodimlarning malakasi (bilim darajasi, qayta tayyorlash sifati);

Raqamli texnologiyalardan foydalanishga bo'lgan tayyorgarligi;

Innovatsion takliflar kiritish faolligi (miqdor va sifat);

Mehnat intizomi darajasi (qoidabuzarliklar va baxtsiz hodisalar soni).



Biznes jarayonlar

Bu bo'lim kompaniya ichidagi ishlab chiqarish va boshqaruv jarayonlarini qamrab oladi:

Ombor siyosatining samaradorligi (ombordagi tovarlar va xom ashyo hajmi, tugallanmagan ishlab chiqarish holati, daromad va zaxira holati);

Ishlab chiqarish sifati (nuqsonlar darajasi, xom ashyo aylanishi, rejalarni o'z vaqtida bajarish koeffitsiyenti);

Ishlab chiqarish bazasi (asosiy vositalarning qiymati, amortizatsiya darajasi, eskirgan vositalar ulushi);

Ishlab chiqarish samaradorligi (quvvatdan foydalanish foizi, ishlab chiqarilgan mahsulot hajmi, ishlab chiqarish tannarxi ulushi);

Logistika (umumiy ishlab chiqarish sikli davomiyligi, xom ashyoni o'z vaqtida yetkazib berish foizi, tayyor mahsulotni mijozga o'z vaqtida yetkazib berish foizi);

Savdo va xizmat ko'rsatish sifati (sotuv sikli davomiyligi, kafolatli xizmat murojaatlari soni, mijozlarning fikr-mulohazalari).

Texnologiyalar va AT

Transformatsiyaning muvofiqligi va uni amalga oshirish imkoniyatlarini baholash uchun quyidagilar inobatga olinadi:

AT xodimlarining mavjudligi va malakasi (soni, kasbiy tayyorgarlik darajasi);

Kompyuter va boshqa qurilmalarning sifati (miqdori, texnik xizmat ko'rsatish davriyligi);

Dasturiy ta'minotdan foydalanish imkoniyati (litsenziyalar, kirish huquqlari, yangilanish holati).

Mijozlar

Raqamli transformatsiya mijozlar bilan interaktiv munosabatlarni chuqurlashtirishni talab qiladi:

Foydalanuvchi bazasi hajmi (mijozlar soni, buyurtma chastotasi va o'rtacha hajmi);

Mijozlarning sodiqligi (takliflardan foydalanish foizi, mijoz kartalari ulushi);

Mijozlar bilan munosabat sifati (qoniqlik darajasi, ijobiy va salbiy fikrlar soni, xizmatdan keyingi ko'rsatkichlar).

XULOSA VA TAKLIFLAR

Umuman olganda, raqobatchilar – raqamli transformatsiya jarayoni doirasida raqobatdosh ustunliklarga erishish vositasidir. Bir tomondan, raqobatchilar kompaniyaning muvaffaqiyatli texnologik va boshqa yechimlarini nusxalashga intilishadi, bu esa mazkur yechimlarning o'ziga xosligini kamaytiradi va natijada kompaniyaning raqobatdosh ustunligi susayadi. Boshqa tomondan, raqobatchilar yangi innovatsion yechimlar manbai sifatida xizmat qilishi ham mumkin. Bu omillar quyidagilarni o'z ichiga oladi:

Kompaniyaning sanoatdagi mavqei (bozor tahlili natijalari, bozor ulushi, taklif etilayotgan mahsulot assortimentining xususiyatlari, ularning moslashuvchanligi);

Raqobatchilar ta'siridan himoyalani (kiberxavfsizlik darajasi, mahsulot narxini oshirish yoki pasaytirish imkoniyatlari, kelgusidagi rivojlanish strategiyalarining mavjudligi va boshqalar).

Davlat siyosati – bu davlatning raqamli texnologiyalarni rivojlantirishni rag'batlantirish bo'yicha olib borayotgan siyosiy, qonunchilik va ma'muriy harakatlarini o'z ichiga oladi. Ushbu omillar quyidagilardan iborat:

Davlat subsidiyalari (subsidiyalarning hajmi, ularga ega bo'lish murakkabligi);

Qonunchilikning o'ziga xos xususiyatlari (qonunchilik darajasida to'siqlarning mavjudligi yoki mavjud emasligi);

Raqamli transformatsiya uchun imtiyozlar (ushbu imtiyozlarni qo'lga kiritish murakkabligi, ularning iqtisodiy samaradorligi);

Davlat tomonidan raqamli transformatsiya bo'yicha maxsus dasturlarga jalb qilish imkoniyatlari.

Tashqi hodisalar – bu iqtisodiy, siyosiy yoki boshqa xarakterdagi voqealardir, ular kompaniya faoliyatiga sezilarli darajada ta'sir ko'rsatishi mumkin. Bunga yaqqol misol sifatida so'nggi yillarda aksariyat kompaniyalar ishiga ta'sir ko'rsatgan (va bu ta'sir har doim ham salbiy bo'lmagan) global pandemiyani keltirish mumkin.

Xulosa o'rnida shuni ta'kidlash lozimki, amalga oshirilgan tasnif asosida raqamli transformatsiyaga ta'sir qiluvchi omillar ma'lum bir iyerarxik tuzilma asosida guruhlanadi. Dastlab, ularni ichki va tashqi omillarga ajratish mumkin, so'ngra esa har bir omil ta'sir ko'rsatadigan aniq funksional sohaga taalluqliligi aniqlanadi. Har bir sohada esa turli darajadagi omillar bir vaqtning o'zida ta'sir ko'rsatadi va ularning har birini baholash uchun mos ko'rsatkichlar tizimi ishlab chiqilishi lozim bo'ladi.

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR RO'YXATI

1. O'zbekiston Respublikasi Prezidentining "Davlat ishtirokidagi korxonalarni isloh qilishni jadallashtirish hamda davlat aktivlarini xususiyashtirishga oid chora-tadbirlar to'g'risida"gi Farmoni (PF-6096-son), Toshkent, 2020-yil 27-oktyabr. <https://lex.uz/uz/docs/-5068824>
2. Gribanov, Yu. I. Ijtimoiy-iqtisodiy tizimlarning raqamli transformatsiyasi omillari va shartlari / Yu. I. Gribanov // Oltoy Iqtisodiyot va Huquq Akademiyasining Axborotnomasi. – 2019-y.



3. Zaichenko, I. M. Raqamli biznesni o'zgartirish haydovchilari: tushunchasi, turlari, asosiy manfaatdor tomonlari / I. M. Zaichenko, A. V.
4. Marchenkov, S. A. ESG-transformatsiya biznesa v sovremennykh ekonomicheskikh i sotsialnykh realiyakh // Vestnik nauki. – 2023. – №10 (67). – B. 43–45. URL: <https://cyberleninka.ru/article/n/esg-transformatsiya-biznesa-v-sovremennyhekonomicheskikh-i-sotsialnyh-realiyah>
5. Mirzayev, Otabek Davronovich. Sanoat korxonalarini transformatsiyalash jarayonining uslubiy asoslari // "Iqtisodiyot va innovatsion texnologiyalar" (Economics and Innovative Technologies) ilmiy elektron jurnali. – 2024-yil, yanvar–fevral. – 1(00069). – B. 141.
6. Kamneva, V. V. Korxonalar raqobatbardoshligining tashqi omillarini raqamli o'zgartirish // "Iqtisodiyot va menejment" turkumi. – 2020-y.
7. Qalmuratov, B. Sanoat tarmog'ini rivojlantirishda klaster tizimini joriy qilishning institutsional asoslari // "Management, Marketing and Finance" xalqaro ilmiy jurnali. – 2025-yil, 1-son. – 2025-yil, yanvar. – B. 30–36. <https://doi.org/10.5281/zenodo.14833264>
8. Qalmuratov, B. Trends of innovative development of the region's industry and its role in shaping the economy // Journal of Management Value & Ethics (A quarterly Publication of GMA). – 2024-yil, yanvar–mart. – Special Issue. – SJIF 8.001 & GIF 0.626. – ISSN 2249-9512. – B. 139–144.
9. Ibragimov, G'. Oziq-ovqat sanoatini transformatsiyalash asosida iqtisodiy samaradorlikni oshirish: Iqtisodiyot fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD) dissertatsiyasi avtoreferati. – Toshkent, 2022-y.
10. Steblyakova, L. P. Transformatsiya ekonomicheskikh sistem: teoriya i praktika: Avtoreferat dissertatsii na soiskanie uch. step. d.e.n. – Moskva, 2010-y. – 54 b.



IQTISODIYOT & TARAQQIYOT

Ijtimoiy, iqtisodiy, texnologik, ilmiy, ommabop jurnal

Ingliz tili muharriri: Feruz Hakimov

Musahhih: Zokir ALIBEKOV

Sahifalovchi va dizayner: Oloviddin Sobir o'g'li

2025. № 6

© Materiallar ko'chirib bosilganda "Yashil" iqtisodiyot va taraqqiyot" jurnali manba sifatida ko'rsatilishi shart. Jurnalda bosilgan material va reklamalardagi dalillarning aniqligiga mualliflar ma'sul. Tahririyat fikri har vaqt ham mualliflar fikriga mos kelamasligi mumkin. Tahririyatga yuborilgan materiallar qaytarilmaydi.

Mazkur jurnalda maqolalar chop etish uchun quyidagi havolalarga maqola, reklama, hikoya va boshqa ijodiy materiallar yuborishingiz mumkin.
Materiallar va reklamalar pullik asosda chop etiladi.

El.Pochta: sq143235@gmail.com

Bot: @iqtisodiyot_77

Tel.: 93 718 40 07

Jurnalga istalgan payt quyidagi rekvizitlar orqali obuna bo'lishingiz mumkin. Obuna bo'lgach, @iqtisodiyot_77 telegram sahifamizga to'lov haqidagi ma'lumotni skrinshot yoki foto shaklida jo'natishingizni so'raymiz. Shu asosda har oygi jurnal yangi sonini manzilingizga jo'natamiz.

"Yashil" iqtisodiyot va taraqqiyot" jurnali 03.11.2022-yildan O'zbekiston Respublikasi Prezidenti Adminstratsiyasi huzuridagi Axborot va ommaviy kommunikatsiyalar agentligi tomonidan №566955 reyestr raqami tartibi bo'yicha ro'yxatdan o'tkazilgan.

Litsenziya raqami: №046523. PNFL: 30407832680027

Manzilimiz: Toshkent shahar, Mirzo Ulug'bek tumani
Kumushkon ko'chasi, 26-uy.



Jurnal sayti: <https://yashil-iqtisodiyot-taraqqiyot.uz>
